



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT XALQARO MOLIYAVIY
BOSHQARUV VA TEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI**

"ILM-FAN, INNOVATSIYALAR, TA'LIM: XORIJIY TILLARNI O'QITISHNING DOLZARB MASALALARI"

mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari



Toshkent – 2025

UDK:37.013

KBK:74.0

I-11

ILM-FAN, INNOVATSIYALAR, TA'LIM: XORIJIY TILLARNI O'QITISHNING DOLZARB MASALALARI.
To'plam. – Toshkent: "METHODIST NASHRIYOTI", 2025. – 472 b.

Ushbu ilmiy to'plamda O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 27-dekabrda 490-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan «O'zbekiston Respublikasida 2025-yilda o'tkaziladigan xalqaro va respublika miqyosida ilmiy-texnik tadbirlar rejasiga asosan ilm-fan nufuzini yanada oshirish va xalqaro ilmiy -texnik hamkorlik ko'lamini kengaytirishga qaratilgan xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy anjumanlar, simpoziumlar, seminarlar va boshqa ilmiy hamda ilmiy-texnik tadbirlarni samarali o'tkazish haqidagi Prezident farmonini amalga tatbiq etilishi haqida so'z boradi. Shu maqsadda Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti "Xorijiy filologiya" kafedrasidan 2025-yil 17-mayda **"Ilm-fan, innovatsiyalar, ta'lim: xorijiy tillarni o'qitishning dolzarb masalalari"** mavzusida respublika ilmiy-amaliy anjuman o'tkazildi. Anjuman xorijiy tillarni zamonaviy texnologiyalar asosida o'rgatish, uning ta'lim sohasiga integratsiyasi va uning innovatsion rivojlanishga ta'sirini ilmiy asosda o'rganishga qaratilgan. Konferensiyaning asosiy maqsadi, xorijiy tillarni o'qitish ta'lim jarayonida qo'llanilishi orqali o'rganiladigan nazariy va amaliy muammolarni aniqlash, nutq o'stirish, yozma va og'zaki nutqni rivojlantirish, kelajak avlodni har tomonlama yetuk va bilimli qilish yo'llarini, hozirgi kunda xorijiy tillarni o'qitishning dolzarbligini tahlil qilishdan iboratdir.

Konferensiya quyidagi yo'nalishlarda ish olib bordi:

1. Madaniyatlararo muloqot va zamonaviy tilshunoslikning lingvomadaniy aspektlari.
2. Adabiyotshunoslik va tarjimashunoslik muammolari.
3. Xorijiy tillarni o'qitishning dolzarb masalalari va rivojlanish tamoyillari.
4. Xorijiy tillarni o'qitishda innovatsion texnologiyalar.
5. Xorijiy tillarni o'rganish metodikasi va ta'lim-tarbiya nazariyasi.
6. Ta'lim jarayoniga pedagogik hamda innovatsion texnologiyalarni joriy etish

Anjuman, xorijiy tillarni o'qitishning ta'lim sifatini oshirishdagi roli, shaxsga yo'naltirilgan ta'limning samaradorligini oshirish hamda ta'lim-tarbiya tizimini mustahkamlash va modernizatsiya qilish bo'yicha yangi yondashuvlarni ishlab chiqishga ko'maklashishni maqsad qilib qo'ygan. Bundan tashqari, konferensiya tillarni o'qitishning tarbiyaviy, estetik va huquqiy jihatlarini, jumladan, ma'lumotlarni chet tilida bemalol so'zlay olish, IELTS, CEFR, TOEFL darajasidagi bilimlarni, pedagogik professionalizmini saqlash muammolarini ham ko'rib chiqishni nazarda tutadi.

Ushbu ilmiy anjuman ta'lim, fan va innovatsiya o'rtasidagi uzviylikni mustahkamlovchi, oliy ta'lim muassasalari o'rtasida ilmiy hamkorlikni chuqurlashtiruvchi, o'qituvchi va tadqiqotchilar uchun zamonaviy yondashuvlar, yangi qarashlar va samarali metodikalarni shakllantiruvchi bilim va tajriba maydoniga aylandi.

Anjuman ta'limning zamonaviy talablariga javob beruvchi innovatsion yechimlar ishlab chiqish, fan va ta'limning uzviy bog'liqligini mustahkamlash va xorijiy tillarni o'qitishning zamonaviy usullarini ishlab chiqish va undan to'liqroq darajada foydalanish imkoniyatlarini ochib berishga qaratilgan.

Mas'ul muharrirlar:

S.X.Sultonova (v.v.b.dotsent)
S.M.Eshpulatova (PhD, v.v.b.dotsent),

Tahririyat a'zolari:

Xorijiy filologiya kafedrasidan o'qituvchilari - Asrorova N.I., Yangiboyeva F. O.,
Ismailova G.O., Soatova Sh.B., Tilavova M.M.

TASHKILIY QO'MITA A'ZOLARI:

Rais - A.A. Nodirov (Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti rektori),
Rais o'rinbosari - N.X.Kaydarov (i.f.d., professor, Ilmiy ishlar, innovatsiya va xalqaro hamkorlik bo'yicha prorektor)
A'zolar - B.A.Raxmatullayev (PhD) (Akademik faoliyat bo'yicha prorektor),
G.T.Xakimova (Ta'lim sifatini nazorat qilish boshqarmasi boshlig'i)
I.A.Xolmuminov (PhD) (Xorijiy filologiya kafedrasidan mudiri),
N.A.Tuxtaxodjayeva (PhD, v.v.b.professor)
Z.E. Bekmurodova (PhD, v.v.b.dotsent)
G.A.Mamarasulova (PhD, v.v.b.dotsent)
S.M. Eshpulatova (PhD, v.v.b.dotsent)
S.X. Sultonova (v.v.b.dotsent)
E.M.Bagavova (PhD, dotsent)
Sh.G.Aripdjanova (f.f.n., dotsent)
A.M.Eshmurodov (PhD, v.v.b.dotsent)
J.A.Mamashukurov (PhD, v.v.b.dotsent)

Mazkur to'plam Toshkent Xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti Kengashining 2025-yil 12-iyundagi 03-30/6-sonli qarori bilan nashrga tavsiya qilingan.

To'plamga kiritilgan ma'lumotlar to'g'riligiga, ilmiy maqolalarning saviyasi, imlovii va ishoraviy xatolari uchun mualliflarning o'zlari mas'uldirlar.

ISBN 978-9910-03-673-6

© "METHODIST NASHRIYOTI", 2025.

ham, muammolar ko'zga tashlanib qolmoqda. Ammo, tarjimon faqatgina so'z tarjimoni bo'lib qolmay, balki madaniyatlar o'rtasidagi ko'priklar hamdir. Xalqlar madaniyati bilan qanchalik ko'p tanish bo'lsak, ular haqida shunchalik ko'p tasavvurga ega bo'lamiz. Shuningdek, tarjima boshqa xalqlar adabiyotida yangi janrlar paydo qilish uchun qo'llanma vazifasini ham o'taydi.

Adabiyotlar:

1. Chodzko A., trans. *Specimens of the Popular Poetry of Persia, as Found in the Adventures and Improvisations of Kurroglou, The Bandit-Minstrel of Northern Persia.* – London: Oriental Translation Fund, 1842.
2. Гацук В. М. Проблема фольклорического перевода эпоса // Петросян, А. А., ответственный редактор. Фольклор. Издание эпоса. – Москва : Изд. «Наука», 1977.
3. "Alpomish" Fozil Yo'ldosh o'g'li "Sharq" nashriyoti. 1998 y.
4. "ALPOMISH" Uzbek heroic epos. K.Mamurov. Tashkent 2019

O'ZBEK BADIY MATNLARIDA XIAZM VA UNING UNIVERSALLIK XUSUSIYATLARI.

f.f.f.d.Bekmuradova Zebiniso Erkinovna,

Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv universiteti va texnologiyalar universitetining "Xorijiy filologiya" kafedrasini v.b dotsenti
e-mail: bekmurodovazebiniso4@gmail.com tel: +998-97-753-45-40

Annotatsiya: Ushbu maqolada xiazm stilistik figurasining mohiyati, uning sintaktik va semantik xususiyatlari, ritorik ta'siri hamda turli matn turlarida qo'llanilishi tahlil qilinadi. Xiazm badiiy adabiyot, siyosiy nutqlar, falsafiy va diniy matnlar hamda kundalik so'zlashuv nutqida qanday ishlatilishi misollar bilan yoritilgan. Shuningdek, u boshqa stilistik vositalar bilan bog'liq holda ko'rib chiqiladi. Ushbu maqola xiazmning o'zbek adabiyotidagi namunalari va uning nutq madaniyatiga ta'sirini o'rganishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: ritorika, falsafiy nutq, stilistika, semantika, poetika, siyosiy nutq,

Xiazm – bu adabiy-badiiy ifoda vositalaridan biri bo'lib, sintaktik va semantik jihatdan teskari tartibda joylashtirilgan elementlar orqali mantiqiy va badiiy ta'sir kuchini oshiradigan stilistik figura hisoblanadi. Bu usul asosan ritorik va poetik nutqda ishlatiladi, chunki u fikrni yanada ta'sirchanroq, esda qolarliroq hamda ritmik qilishga xizmat qiladi.

Xiazm, ayniqsa, nutq madaniyatini boyitish, ritorik ta'sirni oshirish, poetik uslubni kuchaytirish va fikrni original shaklda ifodalash uchun juda muhim stilistik vosita hisoblanadi. U faqat she'riyat yoki badiiy adabiyotda emas, balki siyosiy nutqlar, diniy matnlar, falsafiy risolalar, hatto kundalik so'zlashuv nutqida ham uchraydi. Xiazm oddiy formulada quyidagicha ifodalanadi:

A – B, B – A Bu yerda A va B – sintaktik birliklar bo'lib, ular birinchi qismda beriladi va keyin teskari tartibda takrorlanadi.

Xiazmning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat bo'lib, bu xususiyatlar uning struktur va semantik jihatdan tahlil qilish orqali belgilanadi.

a) Teskari tartib (inversiya) – fikr yoki ibora boshida keltirilgan tushunchalar keyinchalik teskari shaklda takrorlanadi.

b) Fikrni kuchaytirish va ta'kidlash – xiazm yordamida gapning semantik ta'siri ortadi, u esda qolarli va ta'sirchan bo'ladi.

c) Ritmiklik va poetik ifoda – ayniqsa, she'riyatda xiazm tildagi ritm va melodikani kuchaytiradi.

d) Ritorik ta'sir – nutqning ishonarliligini va ta'sirchanligini oshirish uchun ishlatiladi.

Xiazm ba'zan boshqa stilistik usullar bilan birgalikda ishlatiladi hamda ushbu stilistik vositalar xiazmda bevosita ishtirok etadi.

1. Antiteza – ikki qarama-qarshi fikrni bir-biriga zid tarzda qo'llash:

"Hayot – bu o'limning boshlanishi, o'lim esa hayotning boshlanishidir." Antiteza yuqorida keltirilgan misralar kabi bunchalik yorqin bo'lmasligi mumkin, lekin xiazmni yuzaga keltiruvchi qismlar, ikki gap orasidagi qarama-qarshi qo'yishning mavjudligiga shubha yo'q.

2. Oksyumoron – ichki ziddiyatni ifodalovchi iboralar:

Stilistikada yana bir ekspressiv vosita oksyumoron mavjud, qarama-qarshilik birinchi qarashda umuman valent bo'lmagan, ma'nosi bo'yicha bir-biriga butunlay zid bo'lgan so'zlarning birikuviga asoslangan usul, masalan: dahshat chiroyli, vahimali darajada xursandman, qomatga keltiradigan jimlik va boshqalar. "Shirin azob", "muzdek olov", "jim ovoz"

3. Inversiya – gapda so'zlarning odatiy tartibining o'zgarishi:

"Sevgingizni o'chirgan yel emas, yelga o'xshash sevgidir."

Bu stilistik vositalarning birgalikda qo'llanilishi matnning badiiy va ta'sirchanlik darajasini oshiradi. Ayniqsa inversiya natijasida xiazmnining birinchi qismi judayam ekspressiv bo'ladi, bunga intonatsiya ham yordam beradi: bu qismning semantik tarkibi o'sib borayotgan intonatsiyani nazarda tutadi; ikkinchi qismda, aksincha, intonatsiya pasayib boruvchi va umuman butun xiazmnining intonatsiyasi o'suvchi-pasayuvchi. Shunday qilib, xiazm stilistik figura qarama-qarshilik tamoyiliga asoslangan kompozitsion, semantik va intonatsion birlikdir.

Xiazm turli xil kontekstlarda uchraydi va u turli janrlarda o'ziga xos uslubiy yuklama kasb etadi. Shu sababli uni universal stilistik figura sifatida ko'rsatish mumkin. Xiazm universaldir, chunki uning funksiyalari chegaralarni, stilistik cheklovlarni bilmaydi. U so'zlashuv nutqida, birinchi navbatda, xalq og'zaki ijodida, maqollar, matallar, tez aytishlar, topishmoqlar, xazil-mutoyibalar shaklida qo'llanadi. U nafaqat zamonaviy adabiyotda balki mumtoz she'riyatda ham eng ko'p uchraydigan hodisa hisoblanadi. Ayni shu jihatlarga ko'ra uni quyidagi janrlarda tahlilga tortish mumkin.

1. Badiiy adabiyot va she'riyatda: She'riyatda xiazm fikrning poetik ifodasini kuchaytiradi, ritmik uyg'unlikni ta'minlaydi va obrazlilikni oshiradi. Masalan:

Alisher Navoiy:

"Joh-u mol ahlida yo'q mehr-u vafo,
Bas menga mehr-u vafo mol ila joh."

Bu misolda joh-u mol va mehr-u vafo iboralari bir-birining teskari shaklida kelgan bo'lib, boylik va sadoqat tushunchalarining ziddiligini ko'rsatadi.

Ahmad Yassaviy:

"Oshiqdarga dunyoda xorlik, zorlik, malomat,
Malomatsiz, mehnatsiz oshiqman deb aytmasin."

Bu misolda "xorlik" va "malomat" tushunchalari qarama-qarshi bo'lib, oshiqning azobli hayoti teskari shaklda takrorlangan. Bu yerda urg'u konstruksiyaning birinchi qismida pasayib boruvchi chiziqda, ikkinchi qismida esa – ko'tariluvchi. Teskari yo'nalish ham bo'lishi mumkin, bunda birinchi qismda urg'u ko'tariluvchi, ikkinchisida esa pasayib boruvchi chiziqda bo'ladi:

Erkin Vohidov:

"Ikki qoshing o'sma birlan,
Bo'ldi juft nargisli barg,
Ikki barging qoshida men
Titragayman misli barg."

Shuningdek, yuqoridagi misoldaxiazmgasos bo'lganleksik birliklarning omonimik holati ham ko'zga tashlanadi. Xiazmgaga asos bo'lgan *qosh* (tana a'zosi) bu yerda qoshning o'sma surilgandagi chiroyini nargis gulining juft bargiga o'xshatgan bo'lsa, keyingi *barging qoshida* misrasida esa *qosh* (old) boshqa ma'noda kelganini ko'rish mumkin. Bunda shoir ikki *qoshing oldida* barg kabi titragayman demoqchi bo'lib, qizning *qoshi* tasvirini shu qadar mohirona boshqa bir tasvirga qiyos etgan.

2. **Siyosiy va ritorik nutqlarda:** Siyosiy nutqlarda xiazm ma'ruzachining ta'sir kuchini oshiradi, tinglovchilar e'tiborini tortadi va fikrni esda qolarli qiladi.

"Biz davlat uchun xizmat qilamiz, davlat esa biz uchun xizmat qiladi."

"Siz xalq uchun yashaysiz, xalq esa siz uchun yashaydi."

Bu yerda davlat va fuqaro o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni kuchaytirish uchun xiazm ishlatilgan.

3. Falsafiy va diniy matnlarda: Xiazm inson tafakkurini chuqur mulohaza qilishga undaydigan usullardan biri bo'lib, diniy va falsafiy matnlarda keng qo'llaniladi.

"Kechirim berishning o'zi – bu yangi boshlanishdir, yangi boshlanish esa kechirim berishdir."

"Haqiqat yakkadir, yakkalik haqiqatdir."

Xiazm yordamida haqiqat va kechirim tushunchalari ta'kidlangan.

4. Kundalik nutqda:

Xiazm odatiy so'zlashuv nutqida ham uchraydi, ayniqsa, ma'noli iboralarda:

"O'zimni yo'qotdim, ammo shu yo'qotishimda o'zimni topdim."

"Kimni yaxshi ko'rsang, seni yaxshi ko'radi; kimdan nafratlansang, sen undan nafratlanasan."

5. Maqollarda:

Kelinbo'ldim –qaynonamgayoqmadim.

Qaynonabo'ldim–kelinimgayoqmadim. (o'zbek xalq maqollari, 255-bet).

O'zbek xalqi uchun qaynona-kelin munosabatlari har doim birlamchi hisoblanadi hamda bu munosabatlar natijasida yuqoridagi kabi maqollarning yuzaga kelish parametrlari shakllanadi. Darhaqiqat, qaynona va kelin munosabatlarida doimo nizolar yuzaga keladi, natijada kelin bo'lganida qaynonasiga, qaynona bo'lganda esa keliniga yoqmasligini ko'rsatib, jamiyatda bo'layotgan voqea-hodisalarga ishora qilinadi.

Bu misollarda xiazm qarama-qarshi tushunchalar orqali ta'sirchan ifoda yaratadi.

Xiazm – bu adabiy-badiiy nutqda, siyosiy ritorikada, falsafiy tafakkurda hamda kundalik nutqda ishlatiladigan kuchli stilistik figura hisoblanadi. U fikrni o'ziga xos tarzda ta'kidlash, mantiqiy bog'liqlikni kuchaytirish, nutqni yanada estetik qilish va tinglovchi yoki o'quvchining e'tiborini jalb etish uchun ishlatiladi. O'zbek adabiyotida Alisher Navoiy, Bobur, Erkin Vohidov, Muhammad Yusuf va boshqa ko'plab adiblarning asarlarida xiazm uchraydi. Bu stilistik figura nafaqat adabiyot, balki kundalik hayot, siyosat, falsafa va nutq san'atida ham muhim o'rin tutadi.

ADABIYOTLAR

1. Dubois J. Éléments de linguistique française. Paris Larousse. 1973. – P. 26.
2. Mamaziyaev X.O. O'zbek poetik nutqida xiazm va gradatsiya. Filol.fan.nomz...dis. avtoref. – Farg'ona, 2004. – 44 b.
3. Navoiy A. Farhod va Shirin. "Yangi O'zbekistan" nashriyoti. Toshkent, 2002
4. O'zbek xalq maqollari (Tuzuvchilar: T.Mirzaev, A.Musokulov, B.Sarimsoqov; mas'ul muhar.: Sh.Turdimov) – T.: Sharq, 2003. – 512 b.
5. Vohidov E. Shirinsari. O'zbekiston Yozuvchilar Uyushmasi. Toshkent, 2010.

O'ZBEK VA RUS TILLARIDA KELISHIK SHAKLLARINING MUNOSABATI

Eshmuratov A.

TIFT "Xorijiy filologiya" kafedrasida katta o'qituvchisi (PhD)

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek va rus tillaridagi kelishik so'zshakllarining bir-Borgia mos holatlari, muayyan kelishik shakllari ma'nolarning bir-Borgia ma'no jihatidan o'xshashlik tomonlari va farqlari haqida so'z yuritilgan.

Tayanch so'zlar va iboralar: so'zshakl, kelishik shakli, bosh kelishik, tushum kelishigi, qaratqich kelishigi, o'rin kelishigi, chiqish kelishigi, родительный падеж, дательный падеж, предложный падеж, творительный падеж, винительный падеж, kelishik shakllarning mosligi, predlog.

Ma'lumki, hozirgi paytda chet tillarni, jumladan rus tilini o'rganish ham ta'limda dolzarb masalalardan biri bo'lib turibdi. Rus tiling bilish uchun shu tilning grammatikasini bilish kerak. Grammatikaning "Morfologiya" bo'limida so'zlarning kelishik shakllari o'rganiladi. O'zbek till grammatikasi XX asr boshlarida rus olimlari ishtirokida tuzilgani sababli, ko'p holatlarda o'zbek